



Namangan viloyat statistika boshqarmasi


(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-noyabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6717,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,6 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (32,9 %), transport xizmatlari (19,2 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,1 %) ustunlikka ega.

2019 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajm, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	6 717,7	110,6
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	408,8	111,5
Moliyaviy xizmatlar	970,8	169,2
Transport xizmatlari	1 293,0	104,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 169,9	102,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	140,3	101,2
Savdo xizmatlari	2 208,4	102,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	206,1	101,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	289,5	104,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	133,4	107,2
Ijara xizmatlari	140,5	100,6
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	188,9	101,7
Shaxsiy xizmatlar	443,2	101,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	108,2	125,9
Boshqa xizmatlar	186,4	101,4




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlar sohasida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (169,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (125,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,5 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 1257,0 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2018 yil yanvar-noyabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 905,3 mlrd. so'mga ko'paydi.

2019 yil yanvar-noyabr oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (333,2 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (173,6 mlrd. so'mga) hamda moliyaviy xizmatlar (409,9 mlrd. so'mga) xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2018 yilning mos davrida savdo xizmatlari 370,6 mlrd. so'm, transport xizmatlari 63,3 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar 190,8 mlrd. so'mga oshgan.






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ijara xizmatlari (100,6 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (101,2 %), boshqa xizmatlar (101,4 %), kompyuterlarni ta'mirlash xizmati (101,7 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2019 yil yanvar-noyabr oylarida uning ulushi 32,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (19,2 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %), shaxsiy xizmatlar (6,6 %) egallaydi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)


Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

2019 yil yanvar-noyabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %

Transport xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (90,5 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 9,2 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2019 yil yanvar-noyabr oylarida uning ulushi 81,0 % ni tashkil etadi.

2019 yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 13,6 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,4 % ni egallaydi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-noyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni telekommunikasiya xizmati (96,3 %) egallaydi.

Nashriyotchilik xizmati umumiy hajmining 2,6 % ni tashkil qiladi.

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,7 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.

Telekommunikasiya xizmati - 96,3 %

Nashriyotchilik xizmati - 2,6 %

Axborot sohasidagi xizmatlar - 0,7 %

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati - 0,3 %

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati - 0,1 %




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

2019 yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



2019 yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 970,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 169,2 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (89,2 %) tashkil etadi.




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 140,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'atlari 101,2 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,1 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 79,6 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 20,4 % ga to'g'ri keladi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga hajm, ming so'm

2019 yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2421,5 ming.so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 412,9 ming.so'mga oshdi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

(69) 227-85-28